

ZARAFSHON VOHASINI KOMPLEKS INNOVATSION
RIVOJLANTIRISH YUTUQLARI, MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI
V-XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI

MATERIALLARI



PROCEEDINGS

OF THE V-INTERNATIONAL CONFERENCE ON
INTEGRATED INNOVATIVE DEVELOPMENT OF ZARAFSHAN
REGION: ACHIEVEMENTS, CHALLENGES AND PROSPECTS

Volume II

18-19 April, 2024
Navoi, Uzbekistan

ZARAFSHON VOHASINI KOMPLEKS INNOVATSION
RIVOJLANTIRISH YUTUQLARI, MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI
V-XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI

MATERIALLARI

PROCEEDINGS

OF THE V-INTERNATIONAL CONFERENCE ON
INTEGRATED INNOVATIVE DEVELOPMENT OF ZARAFSHAN REGION:
ACHIEVEMENTS, CHALLENGES AND PROSPECTS

18-19 April, 2024
Navoi, Uzbekistan

Volume II



NAVOIY VILOYATI MISOLIDA ZARAFSHON VOHASIDA SANOAT RIVOJLANISHINING TARIXIY JIHATLARI

Sh.A.Xayitov¹, Sh.S.Norov², O.J.Baxriddinov²

¹*Buxoro davlat universiteti*

²*Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar uinersiteti*

Annotatsiya: Ush bu maqola Zarafshon vohasi xususan, Navoiy viloyati sanoat tarixi, uning vujudga kelishi, rivojlanishi, sobiq ittifoq davridagi sanoat holati va mustaqillik davridagi rivojlanish bosqichlarni o'z ichiga oladi. Bu davrda qurilgan sanoat zonalari, zavot va fabrikalar haqida ma'lumot berib, ularning respublikadagi o'rni haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Zarafshon, Navoiy viloyati, NKMK, Qizilqum cho'li, Uchquduq, Zarafshon, Navoiyazot, Qizilqumsement.

Zarafshon vohasi yurtimizning markaziy qismida joylashgan bo'lib, u Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyatlarini o'z ichiga oluvchi ulkan voha hisoblanadi. Bu voha nomining kelib chiqishiga sabab esa bu hududdan Tojikistondan boshlanib oqib o'tuvchi Zarafshon daryosi sabab bo'lgan. Zarafshon so'zning ma'nosi "zar oqadigan daryo" degan ma'noni anglatadi[1].

Zarafshon vohasi o'zining ko'hna tarixi bilan dunyoning istalgan hududi bilan belasha oladigan noyob tarixga ega bo'lganligi bilan faxrlana oladigan maskandir. Bu hudud azaldan insoniyat beshigi bo'lganligi tarixning muhim manbalarida qayd etilgan. Bu maskan o'zining qadamjolari bilan bir qatorda o'zining yer ostida saqlagan ulkan xazinasini bilan ham juda qadrlil hisoblanadi [2]. Bu hududda Mendeleyev davriy jadvalida uchratish mumkin bo'lgan deyarli barcha elementlarni uchratishimiz mumkin. Bu esa voha sanoat rivojining asosini yaratib bermoqda. Ayniqsa vohaning yosh viloyati bo'lmish Navoiy viloyati o'zining sanoati bilan bugun kunda respublikaning eng oldi viloyatlaridan biri sanaladi. Navoiy viloyati hududida joylashgan qizilqum cho'li esa bu hududni respublika va jahondagi eng katta oltin ishlab chiqaruvchi hududga aylanishiga sabab bo'lmoqda[3].

Sobiq sho'ro davrida O'zbekiston 74 yil mobaynida ittifoqqa ham siyosiy, ham iqtisodiy, ham ma'naviy qaram bo'ldi. Bu esa uning rivojlanish darajasini faqatgina bir yoqlama bo'lishiga sabab bo'ldi. Shunday bo'lsada Sobiq Ittifoq davrida O'zbekiston SSR 1-kotibi Sharof Rashidov tashabbusi bilan Qizilqum cho'lida Navoiy, Uchquduq, Zarafshon kabi ulkan sanoat zonalari barpo etildi. Dastavval bu hududda Navoiy kon-metalurgiya kombinati faoliyati boshlagan bo'lsa (1958), keyinchalik Navoiy issiqlik elektro stansiyasi(1960-1981), "Navoiyazot" ishlab chiqarish birlashmasi, "Qizilqumsement", "Elektrkimyo", kabi yirik ishlab chiqarish buniyod etildi. Buning natijasida Navoiy shahar SSSRdagi eng yosh va rivojlangan sanoat shahriga aylandi.

"O'zbekiston oltin qazib olishda yetakchi o'rinlardan birini egallardi. Uning birinchi quymasi 1969-yil iyun oyida Zarafshon oltin chiqarish zavodida olingan edi. 80-yillarning oxiriga kelib Respublikada har yili 50 tonnagacha yetkazib «sariq metall» eritildi edi. Respublika oltin yetkazib berish bo'yicha SSSRda asosiy o'ringa chiqib olgan bo'lib, umumittifoq oltinining qariyb 50% ni yetkazib berardi. 70-80-yillarda uran ishlab chiqarish kengaydi, uning zaxiralari bo'yicha o'lkamiz dunyoda 7-8-o'rinni egallardi". Lekin ming afsuslar bo'lsinki bizning hududda yetishtirilgan mahsulotlardan biz o'zimiz hohlagan holda foydalana olmas edik, ya'ni o'zbekiston o'z hududidan chiqan milliy boyliklariga xalq emas, balki markaz bo'lmish Moskva xo'jayin edi.

O'sha davr kombinant rahbari bo'lmish N.Kucherskiy ma'lumotlariga ko'ra "kombinat konchilari qaynoq qumlar ostidan qazib oladigan boyliklar yiliga milliard dollarlab foyda keltirardi. Uning qiymatini butun O'zbekiston vohasida yetishtiriladigan jami paxta tolasi bilan qiyoslasa bo'lardi".

O'zbekiston respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi (1991-yil 31-avgust Oliy Kengash XII chaqiriq navbatdan tashqari 6-sessiya) o'zbek xalqining o'z tabiiy boyliklariga va o'z haq-huquqini to'liq namoyon bo'lishiga sabab bo'ldi. Endi o'zbek xalqi o'z tabiiy boyliklarini yurtning istiqboli yo'lida foydalanishi va aholi yashash faoliyatini yaxshilashi mumkun edi.

“O'tmishga nazar tashlar ekanmiz, achchiq bir haqiqatni tan olishga majburmiz: “o'zbek” deganda, faqat ertayu kech paxta dalasida mehnat qiladigan zahmatkash insonlar tasavvur qilinar edi. Afsuski, shu darajaga tushib qolgan edik. Paxta hukmronligi o'zbekning peshonasiga yozilgan balo bo'ldi. Paxta siyosati Orolni quritdi, ekologiyamizni inqirozga olib keldi, iqtisodiyotimizni, ta'lim tizimini izdan chiqardi. Oqibatda bir necha avlod chalasavod bo'lib voyaga yetdi. Biz buning asoratlari bilan haligacha kurashyapmiz”.

Mustaqillik yillarida Zarafshon vohasiga imkoniyatlaridan kelib chiqib, bu hududga bo'lgan e'tibor yanada kuchaytirildi. Mustaqillikdan so'ng vohaga yangidan-yangi zavod va fabrikalar qad rostlay boshladi. Xusan, “Nurotamarmar”, “Zarafshon-Nyumont” o'zbek-amerika qo'shma korxonasi, (1995), “Agama”, “Zerispark”, “Bentonit” NKMK tarkibida Uchquduqdagi 3-gidrometalurgiya zavodi(1995-yil 14iyun), Qo'shrabodda 4-gidro-metalurgiya zavodi(2010-yil avgust) va boshqalar samarali faoliyat yurita boshladi. Ayniqsa 2008 yilning 2 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti “Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida”gi farmonini hududning iqtisodiy imkoniyatlarini oshirib berdi.

Hozirgi kunda viloyatda 17 yirik sanoat korxonasi faoliyat ko'rsatmoqda. Navoiy kon-metallurgiya kombinati, “Navoiyazot”, “Qizilqumsement”, “Navoiy issiqlik elektr stansiyasi” aksiyadorlik jamiyatlari va “Elektrkimyo zavodi” qo'shma korxonasi shular jumlasidandir. “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasidagi 18 korxonadan 100 dan ortiq turdagi raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.

Natijada Navoiy viloyati 2023 yilning yanvar-sentyabr oylarida jami 73 trln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'sish sur'atlari 105,8%, respublikadagi ulushi 16%ni tashkil etgan.

Viloyatning respublikada yetakchi o'rinlardan birini egallashiga NKMKning o'rni ham beqiyosdir. Jumladan NKMK jahonning oltin ishlab chiqaruvchi yirik kompaniyalari o'rtasida 2016-yildagi 7-o'rindan 2023-yilda 4-o'ringa ko'tarildi. 2023-yilning natijalariga ko'ra, NKMK tomonidan joriy yilda mahsulot ishlab chiqarish 67,2 trillion so'mni tashkil etib, reja 103,8 foizga bajarildi.

Xulosa qilib aytganda, Zarafshon vohasi Respublika sanoati va iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etib, davlat iqtisodiy salohiyatini butun dunyoga keng namoyon etib kelmoqda. Bu esa real daromadi va yashash farovonligini o'sishiga ham hizmat qilib kelmoqda.

Adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston mustaqilligining 32 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. (2023-yil 31-avgust).
2. Хаитов Ш. А., Норов Ш. С. Исторический процесс разработки и принятие законов, на основании региональных сущностей о молодежи Узбекистана в период 2016-2020гг //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 81-88.
3. Suvonovich N.S. YOUTH EMPLOYMENT IN ZARAFSHAN OASIS: HISTORICAL EXPERIENCE OF NAVOI REGION //British Journal of Global Ecology and Sustainable Development. – 2022. – Т. 11. – С. 12-17.

A.N.Raximov	329
175. ГУБИТЕЛЬНОЕ ВЛИЯНИЕ АРАЛЬСКОГО КРИЗИСА НА ЖИЗНЕДЕЯТЕЛЬНОСТЬ РЕГИОНА А.М.Хакимов, Б.Ш.Касымов, З.А.Хакимова	331
176. ЭКОНОМИЧЕСКИЙ ЭФФЕКТ ОПТИМИЗАЦИИ ЗАТРАТ ПРИ РЕАЛИЗАЦИИ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ НА ПРИМЕРЕ ИНВЕСТИЦИОННОГО ПРОЕКТА «СТРОИТЕЛЬСТВО КОМПЛЕКСА ПО ПЕРЕРАБОТКЕ ТЕХНОГЕННЫХ ОТХОДОВ ЦКВЗ (ГМЗ-7) НГМК Х.Н.Бакоев ¹ , М.Н.Нодиров ²	333
177. ҚИЗИЛҚУМ МИНТАҚАСИДА ҚАДИМГИ КОНЧИЛИК ВА МЕТАЛЛУРГИЯ Д.А.Исмоилова, Н.О.Бердиев	334
178. ЭВОЛЮЦИЯ ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ ЗЕРАВШАНСКОГО РАЙОНА: ДОСТИЖЕНИЯ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ Дж.Э.Рустамов	336
179. ПРОМЫШЛЕННОЕ НАСЛЕДИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ВЫЗОВЫ: АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ЗЕРАВШАНСКОГО РЕГИОНА Дж.Э.Рустамов	338
180. МАРКАЗИЙ ОСИЁДА МЕТАЛЛГА ИШЛОВ БЕРИШНИНГ ПАЙДО БЎЛИШИ ВА УНИНГ АҲАМИЯТИ Д.А.Исмоилова, Н.О.Бердиев	340
181. XIX ASR OXIRI - XX ASR BOSH LARDA TURKISTONDA VELOSIPEDNING KIRIB KELISH TARIXI A.A.Ahmadov	342
182. TURKISTON JADIDLARI MINTAQADA YANGI TEXNIKALAR TARQATISHNING TARG'IBOTCHISI VA TASHABBUSKORLARI Sh.A.Nayitov, D.D.Elova	343
183. YOSHLARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI Sh.Sh.Babayarov	345
184. NUROTA TUMANIDA AMALGA OSHIRILGAN IQTISODIY ISLOHOTLARNING TARIXIY TAHLILI (2017-2024) Sh.S.Norov, M.Z. Toshpo'latov	346
185. БУХОРО ХОНЛИГИ ДАВРИ ИНШОУТЛАРИ ҚУРИЛИШИ ТАРИХИДАН Ш.Ш.Бабаярова	348
186. BUXORO KO'CHALARIDA AVTOMOBIL TEXNIKASI QACHONDAN QATNAY BOSHLAGAN EDI Sh.A.Nayitov, H.Y.Hasanova	349
187. МОЛОДЁЖНЫЕ ОРГАНИЗАЦИИ В РАЗВИТИЕ ПРОМЫШЛЕННОГО НАСЛЕДИЯ ЗАРАФШАНСКОГО ОАЗИСА Ш.С.Норов	351
188. NAVOIY VILOYATI MISOLIDA ZARAFSHON VOHASIDA SANOAT RIVOJLANISHINING TARIXIY JIHATLARI Sh.A.Xayitov ¹ , Sh.S.Norov ² , O.J.Baxriddinov ²	353
189. ЗАРАФШОН ВОҲАСИДА ҚАЗИЛМА БОЙЛИКЛАРИНИ ТОПИЛИШ ТАРИХИДАН Х. Раупов	355